

Ilmiy rahbar: Xolmurodova Madina

O'zbekiston davlat jahon tillari unversiteti

1-kurs talabasi Ubaydullayeva Ruxsora

Annotatsiya Ushbu maqolada umum ta'lim maktablarida tabiiy fanlarning muhimligi bu fanlarni qanday qilib oson o'zlashtirish kerak ekanligi haqida va tabiiy fanlarni o'qitishdagi metodlar haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: tabiat, tabiiy fan, o'simliklar, amaliy metod, kim chaqqon o'yin metodi, domino o'yin metodi, eslab qol metodi.

METHODOLOGY OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN SECONDARY SCHOOLS

Abstract: In this article, information is given about the importance of natural sciences in secondary schools and how to learn them quickly and easily as well as the methods of teaching these sciences.

Keywords: plants, nature, natural science, practical method, domino method, who is agile method, remember method.

Tabiat bu-bizni o'rab turgan atrof muhit o'simliklar va hayvonot dunyosi hisoblanadi. Tug'ilganimizdan buyon tabiat qo'ynida o'sib ulg'ayamiz, uni asraymiz va har qadamda tabiat unsurlaridan foydalanamiz. Tabiiy fanlarga kimyo, biologiya, fizika kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu fanlar hayotimizda muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizmida ham 2021-2022 o'quv yillaridan boshlab 1-6 sinflar uchun tabiiy fanlarni o'zida jamlagan (SCIENCE) fanlari joriy qilingan. 6 sinfdan yuqorilar uchun esa biologiya fani o'tilishi belgilab qo'yilgan.

Bu fanlar bizga nima uchun kerak? Nima uchun boshlang'ich sinlardan boshlab o'qitish yo'lga qo'yilgan degan savollarga javob berib o'taman. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi tabiatshunoslikni o'qitishda har tomonlanma tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beradi. O'quvchilarga bu fanni o'rgatib borish birga o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularning dunyoqarashi, irodasi, xarakterini shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu fanni yana bir muhimlik jihati shundaki, tabiat bizga turli xil ne'matlarni ato etadi biz ularni asrab - avaylashni yer kurrasi, osmon jismlari kabi ko'plab ma'lumotlarga ham ega bo'lamiz. Bu fan tabiatni yoshlikdan anglab olishimiz atrof - muhit bilan do'stona munosabatda bo'lishimiz uchun ham darslik sifatida o'qitilib kelinmoqda.

Bu fanni o'qitish jarayonida turli xil metodlardan foydalanilsa o'quvchi uchun qiziqarli hamda tushunarli bo'ladi, bu borada, Abu Rayhon Beruniy bobomiz quyidagilarni e'tirof etadi: "Inson yaratadigan har bir narsa uning ruhiyatiga qobiliyatiga mos uni toliqtirmaydigan bo'lishi kerak hadeb bir narsani o'qitish va o'rgatish zerikarli bo'ladi, toqatni toq qiladi. Agar shogird bir masaladan boshqa masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Bir bog'dan o'tar - o'tmas boshqa bog' boshlanadi kishi ularning hammasini ko'rgisi, tomosha qilgisi keladi. Har bir narsa rohat bag'ishlaydi"¹, - deya ta'kidlaydi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darslarda metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fanni o'qitishda metodlarni to'g'ri qo'llay olishimiz lozim. Chunki tabiatdagi mustaqil kuzatishlarsiz kichik yoshdagi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirib bo'lmaydi, o'simliklarni o'stirish va hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha amaliy ishlar bajarilmasdan qishloq xo'jalik mehnatining amaliy o'quv hamda ko'nikmalarini hosil qilib bo'lmaydi. Qo'llanadigan har qanday metodning o'quvchida qanday ahamiyatga egaligi, qaysi jihatdan o'stirishi, ijobiy

¹ <https://oyina.uz/uz/teahause/29>

va salbiy tomonlarini e'tiborga olish lozim. Quyidagi metodlarni qo'llash o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Amaliy metod: Bu metod o'quvchilarni tabiat qo'yniga olib chiqish yoki xonada bo'lsa ham amaliy mashqlar bajartirishdan iborat. Masalan, Ob - havoni kuzatish mavzusi o'tilgan bo'lsa, o'quvchilardan ayni o'sha paytdagi ob - havoma'lumotlarini so'rash orqali mavzu mustahkamlab boriladi. Xonada bo'lsa, biror bir gulning bargini mikroskop yordamida kuzatish, bu ham darsni qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Kim chaqqon metodi:

1. O'quvchilarga tez va xatosiz ravishda "O" va "A" "T" yoki boshqa harflari bor o'simlik nomlarini yozish topshiriladi. Masalan: terak, atirgul va na'matak.

2. O'quvchi diqqat e'tiborini bir fikrdan boshqasiga tez o'tkaza olishni mashq qildirish uchun ushbu mashqning vazifasini biroz o'zgartirish mumkin. O'quvchilarga tez va xatosiz ravishda avval "O" keyin "A" so'ngra esa "T" harflari bor bo'lgan o'simlik nomlarini ketma - ket yozish. Masalan: terak, olma, olcha va nastarin.

3. O'quvchilarga bosh harfi alfabit bo'yicha boshlanuvchi o'simlik nomlarini yozish topshiriladi. Masalan: anor, behi, do'lana va h.k

4. O'quvchilarga tez va xatosiz ravishda daraxt, buta bir yillik va ko'p yillik o'tlar haqida qisqacha ma'lumotlar yozish. Masalan, buta tagidan bir-biriga teng poyalarning o'sib chiqishi hamda past bo'lishi bilan daraxtlardan farq qiladi.

Domino o'yin metodi: Doskaga ikki o'quvchi chaqiriladi. Ulardan biri doskaga biror biologik atamani yozadi. Ikkinchi o'quvchi atama qaysi harf bilan tugagan bo'lsa, shu harf bilan boshlanuvchi boshqa atamani yozadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Masalan, Fotosintez-ziravor-rangli plastida-abiotik omil va h.k Bu o'yin o'simliklar nomlari bilan o'tkazilishi ham mumkin. Masalan: zira, arpa, angishovnagul, lola, anor va h.k

Eslab qol metodi: O'qituvchi 20-30ta o'simlik nomlarini aytadi. O'quvchilar daftarlariga xotiralarida saqlanib qolgan o'simliklarning nomlarini yozadilar.

Turli xil metodlardan foydalanish o'quvchilarda tabiiy fanga qiziqish uyg'otadi va bu fanga bo'lgan o'zlashtirish ko'rsatkichini o'stirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu fanni o'qitish orqali biz o'quvchilarda, eng birinchi navbatda, tabiatga bo'lgan mehrni uyg'otish, uni asrab – avaylash, tabiatdagi turli xil noyob o'simlik va hayvonlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kabi tushunchalarni shakllantira olamiz. Boshqa fanlar qatori bu fan ham o'quvchilar tafakkur va dunyo qarashini o'stirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodlarni o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (TABIIY FANLAR Qo'llanmasi)
2. Avezov M.M Tabiiy fanlar 3 -sinf darslik
3. D.Sharipova D.P Xodiyeva M.K Shirinov “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi”.
4. <https://oyina.uz/uz/teahause/29>